

**"O'RTA ASR FRANSIYASIDA MARKAZLASHUV  
JARAYONLARI VA ISLOHOTLAR"**

*ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi*

***Jumaboyeva Oyruga***

***Annotatsiya.*** Ushbu maqolada, Lyudovik IX (Saint Louis) davrida Fransiya qirolligi bo'yicha amalga oshirilgan siyosiy, sud va moliya islohotlari tahlil qilinadi. XIII asrda mamlakatda markazlashtirilgan boshqaruv tizimi shakllanib, feodal tizimga qarshi islohotlar o'tkazildi. Qirollik kengashi, sud tizimi va tanga zarb qilishdagi yangiliklar mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini tubdan o'zgartirdi. Maqolada, shuningdek, dēhqonlar harakati va ularning qo'zg'olonlari, xususan, 1251-yildagi "Cho'ponlar harakati" haqida ham so'z yuritiladi. Lyudovik IX ning islohotlari Fransiyaning iqtisodiy yuksalishiga olib keldi, biroq ijtimoiy tengsizlik va soliqlar dēhqonlarning qiyinchiliklarini kuchaytirib, qo'zg'olonlarga sabab bo'ldi.

***Kalit so'zlar;*** Lyudovik IX, Fransiya qirolligi, Siyosiy islohotlar, Markazlashtirish, Sud islohotlari, Moliya tizimi, Tanga zarbi, Feodalizm, Dehqonlar harakati, Cho'ponlar harakati, Xarajatlar va soliqlar, Salib yurishlari, Ijtimoiy tengsizlik, Fransuz cherkovi, Fransiyaning iqtisodiy rivojlanishi.

***Annotation;*** This article analyzes the political, judicial and financial reforms of the French kingdom during the reign of Louis IX (Saint Louis). In the 13th century, a centralized administrative system was formed in the country, and reforms against the feudal system were carried out. innovations in the royal council, judicial system, and coinage radically changed the political and economic life of the country. The article also discusses peasant movements and their revolts, particularly the Shepherds' Movement of 1251. Louis IX's reforms led to economic growth in France, but social inequality and taxes exacerbated the hardships of the peasantry and led to revolts

**Keywords;** *Louis IX, French monarchy, Political reforms, Centralization, Judicial reforms, Financial system, Coinage, Feudalism, Peasants' movement, Shepherds' movement, Expenditures and taxes, Crusades, Social inequality, French Church, French economic development.*

**Аннотация;** *В данной статье анализируются политические, судебные и финансовые реформы Французского королевства в период правления Людовика IX (Людовика Святого). В 13 веке в стране сформировалась централизованная административная система, были проведены реформы против феодальной системы. Нововведения в королевском совете, судебной системе и чеканке монет радикально изменили политическую и экономическую жизнь страны. В статье также рассматриваются крестьянские движения и их восстания, в частности Пастушеское движение 1251 года. Реформы Людовика IX привели к экономическому росту во Франции, но социальное неравенство и налоги усугубили лишения крестьянства и привели к восстаниям.*

**Ключевые слова;** *Людовик IX, Французская монархия, Политическое развитие, Централизация, Судебные процессы, Финансовая система, Чеканка монет, Феодализм, Крестьянское движение, Пастушеское движение, Расходы и налоги, Крестовые походы, Социальное неравенство, Французская церковь, Экономическое развитие Франции.*

**Kirish.** XIII asr Fransiya tarixida juda muhim davr bo‘lib, mamlakat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Ushbu davr Fransiya qirolligining kuchayishi va markazlashgan davlat sifatida shakllanishi bilan ajralib turadi. Xususan, Lyudovik IX boshqaruv davri mamlakatni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar bilan tarix sahifalariga muhrlandi. Siyosiy islohotlar markaziy boshqaruv tizimining shakllanishiga, sud islohotlari esa adolatli boshqaruv prinsiplarini joriy etishga asos soldi. Shu bilan birga, moliya tizimida ham tub o‘zgarishlar amalga oshirilib, davlat xazinasining boyishi va iqtisodiy rivojlanishning kuchayishiga

erishildi. Lyudovik IX nafaqat mamlakatni boshqaruv tizimini yaxshilashga qaratilgan faoliyat olib bordi, balki xalqning turmush darajasini oshirish uchun ham muhim qadamlar tashladi. Ammo ijtimoiy tengsizlik va ortib borayotgan soliqlar natijasida, ayniqsa qishloq joylarda, dehqonlar ommasining noroziliklari kuchayib bordi. 1251-yildagi “Cho‘ponlar harakati” deb nom olgan dehqonlar qo‘zg‘oloni bu jarayonning eng yorqin namunasidir. Ushbu davr voqealari Fransiyaning nafaqat ichki siyosiy barqarorligiga, balki mamlakatning xalqaro nufuziga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu maqola Lyudovik IX davridagi siyosiy va iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy harakatlar hamda ularning Fransiya rivojlanishiga bo‘lgan ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda qirollik hokimiyatining mustahkamlanishi, sud tizimidagi yangiliklar, moliya siyosati va dehqonlar noroziligining sabablari hamda oqibatlar batafsil yoritiladi.

**Asosiy qism.** Siyosiy islohotlar va markazlashuv. Lyudovik IX davrida Fransiya siyosiy boshqaruv tizimida muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Qirollik kengashi, yoki “qirollik kuryasi”, o‘sha davrda feodallarning s'ezdidan markaziy byurokratik muassasaga aylantirildi. Bu muassasa keyinchalik bir necha boshqarmalarga bo‘linib, davlatni samarali boshqarish uchun asosiy vositaga aylandi. Kichik qirollik kengashi, ya’ni “tor doiradagi kengash”, qirolning eng yaqin maslahatchilari va amaldorlarini birlashtirib, siyosiy qarorlarni tez va samarali qabul qilishga imkon yaratdi. Markazlashuv siyosati doirasida sud tizimi ham isloh qilindi. Qirollik sudi feodallar va boshqa hududlarning fuqarolariga murojaat qilish imkonini berdi. Ayrim jinoyatlar (masalan, o‘t qo‘yish, soxta tanga yasash, ayollarni o‘g‘irlash) faqat qirollik sudi tomonidan ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi. Bu islohotlar nafaqat markazlashuvni kuchaytirib, qirollik hokimiyatini mustahkamladi, balki adolatni ta’minlashga qaratilgan qadam edi. Lyudovik IX davrida moliya tizimi jiddiy isloh qilindi. Qirol feodallarning tanga zarb qilish borasidagi vakolatlarini cheklab, o‘zining pul tizimini joriy etdi. Natijada qirollik tangalari feodal tangalarini siqib chiqara boshladi va mamlakatda yagona moliyaviy tizim shakllandi. Qirollik xazinasini feodal vassallardan, shahar-kommunalardan va Fransuz cherkovidan tushadigan soliqlarning ko‘payishi

hisobiga boyidi. Salib yurishlari uchun to'plangan soliqlar davlat daromadlarining doimiy manbalaridan biriga aylandi. Qirollik moliya tizimidagi muvaffaqiyatlar Fransiyaning iqtisodiy yuksalishiga katta hissa qo'shdi. Tovar-pul xo'jaligining rivojlanishi, shaharlar va savdo-sanoatning o'sishi mamlakatning iqtisodiy mustahkamligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi[1].

XIII asr davomida Fransiyada ijtimoiy tengsizlik kuchayib bordi. Feodallar tomonidan qo'llanilgan og'ir soliqlar va majburiyatlar dehqonlar noroziligini kuchaytirdi. Ayniqsa, Lyudovik IX boshchiligidagi salib yurishlari bilan bog'liq xarajatlar dehqonlarning holatini og'irlashtirdi. 1251-yilda sodir bo'lgan "Cho'ponlar harakati" bu norozilikning yorqin namunasi bo'ldi. Qo'zg'olonchilar qirolning salib yurishlaridagi asirlikdan qutqarilishi uchun xalqdan soliqlar yig'ilayotganiga norozilik bildirib, boy feodallar va cherkov mulklariga hujum qildi. Biroq bu harakatning yomon tashkil etilgani va harbiy tajriba yetishmagani sababli muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Hukumat va feodallar qo'zg'olonchilarni qattiq jazoladi.

Lyudovik IX davrida mamlakat iqtisodiy jihatdan yuksalishni boshdan kechirdi. Savdo va sanoat rivojlandi, shaharlar o'sdi, pul xo'jaligi kengaydi. Bu jarayon iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlardan davlat xazinasiga tushumlarning ortishiga olib keldi. Shu bilan birga, natural xo'jalikdan tovar-pul xo'jaligiga o'tish jarayoni ham tezlashdi, bu esa mamlakatdagi ijtimoiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Biroq iqtisodiy yuksalish va ijtimoiy tengsizlik bir paytda davom etganligi sababli, Fransiya qishloq joylarida ko'plab noroziliklar va qo'zg'olonlar sodir bo'lib turdi. Bu jarayonlar davlatning markazlashuv siyosatini yanada kuchaytirish zaruratini paydo qildi[2].

Cherkov va qirollik o'rtasidagi munosabatlar. Lyudovik IX cherkov bilan yaqin aloqalar o'rnatgan va cherkovning davlat ishlari bilan bog'liq bo'lgan huquqlarini kengaytirishga hissa qo'shgan. Cherkovdan kelgan katta mablag'lar mamlakatning moliyaviy ahvolini yaxshilashga yordam berdi. Qirol Lyudovik IX o'zi katolik e'tiqodining sodiq himoyachisi sifatida tanilgan, hatto vafotidan keyin kanonizatsiya qilinib, avliyo maqomini oldi. Cherkov va qirollik o'rtasidagi bu

yaqin munosabatlar, bir tomondan, qirollik hokimiyatini mustahkamladi, boshqa tomondan esa, jamiyatdagi tabaqaviy farqlarni yanada kuchaytirdi. Cherkov yer-suvlarini boshqarish masalasi va u yerdan tushgan daromadlarning soliqsizligi feodal tuzumni mustahkamlashga xizmat qilgan. Harbiy siyosat va salib yurishlari. Lyudovik IX ikki marta salib yurishlarini tashkil etdi: 1248-1254 yillardagi Ettinchi salib yurishi va 1270-yildagi Sakkizinchi salib yurishi. Ushbu harbiy yurishlarning asosiy maqsadi Sharqdagi nasroniylik muqaddas joylarini musulmonlardan qaytarib olish edi. Ammo ikkala yurish ham muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi va ulkan moliyaviy va insoniy yo'qotishlarga olib keldi. Ettinchi salib yurishi davomida Lyudovik IX asirga tushib, katta miqdordagi tovon to'lash evaziga ozodlikka chiqdi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy resurslariga jiddiy zarar yetkazdi. Sakkizinchi salib yurishida qirol o'zi ham vafot etdi, bu esa mamlakatda yangi siyosiy bosqichni boshladi[3].

Shaharlarning o'sishi va iqtisodiy ta'sir. Lyudovik IX davrida Fransiya shaharlarining iqtisodiy va siyosiy ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Shaharlar nafaqat savdo va sanoat markazlariga, balki qirollik boshqaruvida ham muhim rol o'ynaydigan ijtimoiy bazaga aylandi. Shaharlarda yirik gildiyalar, ustaxona uyushmalari va bozorlar rivojlandi. Bu nafaqat iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirdi, balki jamiyatning quyi tabaqalariga, xususan, shahar mehnatkashlariga iqtisodiy erkinlik berdi[4].

**Xulosa.** Lyudovik IX davri Fransiya tarixi uchun o'ta muhim bosqich bo'lib, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ulkan o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Qirolning ma'muriy, sud va moliya tizimidagi islohotlari Fransiyada markazlashgan davlat tuzilmasini shakllantirish yo'lida asosiy qadamlar bo'ldi. Qirollik kengashi va sud muassasalarining tashkil etilishi davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirdi va qirol hokimiyatining kuchayishiga xizmat qildi. Bu islohotlar Fransiyaning Yevropa davlatlari orasida o'z o'rnini mustahkamlashiga olib keldi. Lyudovik IX ning salib yurishlarida faol ishtirok etishi uning diniy e'tiqodga qanchalik sodiq ekanligini ko'rsatdi. Ammo bu harbiy harakatlar mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi. Yurishlar muvaffaqiyatsiz tugagani

Fransiyaning ichki siyosatida jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Shunga qaramay, qirolning xalqaro nufuzi va diniy avliyo maqomini qo‘lga kiritishi mamlakat uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Qirolning moliya siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan edi. Pul xo‘jaligining rivojlanishi, savdosi va shaharlar iqtisodiyotidagi o‘shish Fransiyaning xo‘jalik salohiyatini kuchaytirdi. Bu jarayonlar shaharlar va qirollik o‘rtasidagi ittifoqni mustahkamladi, ammo feodal ekspluatatsiyaning davom etishi va dehqonlar ahvolining og‘irlashishi Fransiyada norozilik harakatlariga sabab bo‘ldi. 1251-yildagi “Cho‘ponlar harakati” bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Lyudovik IX o‘zining boshqaruv uslubi bilan davlatni rivojlantirishda muhim qadamlar tashladi. U nafaqat shaxsiy fazilatlarini, balki adolatga intilishi va xalqqa xizmat qilishdagi qat’iyati bilan ham tarixda o‘z nomini qoldirdi. Qirollikning ichki va tashqi siyosatida ko‘zga ko‘ringan muvaffaqiyatlari hamda ayrim muvaffaqiyatsizliklariga qaramay, uning davri Fransiyaning markazlashuvi va kuchli davlat sifatida shakllanishida muhim bosqich sifatida tarixda qolgan. Bugungi kunda Lyudovik IX faoliyati Fransiya tarixining muhim qismi sifatida o‘rganilib, uning olib borgan islohotlari davlat boshqaruvida zamonaviy boshqaruv tamoyillarini shakllantirishga asos bo‘ldi. Shu sababli, uning davrini nafaqat Fransiya, balki butun Yevropa tarixida o‘ziga xos burilish davri sifatida ko‘rish mumkin.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. Asqarov, A. O‘rta asrlar tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2010.
2. Boymirzaev, A. Fransiya tarixining qisqacha kursi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
3. Buryakov, A. Yevropa davlatlari tarixidan lavhalar. Samarqand: Universitet nashriyoti, 2008.
4. Qosimov, N. Jahon tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2012.